



## O'QITISHDA GRAFIK TUSHUNCHALAR VOSITASIDA TEXNOLOGIK TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH

*Sabirxodjaeva Tursunoy Tojiddin qizi*

*ADU, "Tasviriy va amaliy san'at" kafedrasi katta o'qituvchisi.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada chizmachilik ta'liming ilg'orligi va samaradorligi va sifatini oshirish omili sifatida mehnat darsi bo'yicha grafik bilim va ko'nikmalarining aniq lanishi bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** chizmachilik, grafik, konstruksiyalash, texnologiya elementlari, grafik tushuncha, uzlusiz ta'lim.

**Abstract:** This article describes the definition of graphic knowledge and skills in labor lessons as a factor in improving the progress, efficiency and quality of drawing education.

**Keywords:** drawing, graphics, design, elements of technology, graphic concept, continuing education.

"Haqiqatan ham, jahondagi rivojlangan davlatlar tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularda jamiyat hayotini o'zgartirishga qaratilgan islohotlar avvalo ta'lim tizimidan, bog'cha, maktab, tarbiya masalasidan boshlanganini ko'ramiz. CHunki maktabni o'zgartirmasdan turib, odamni, jamiyatni o'zgartirib bo'lmaydi. Ta'lim va tarbiyaning asosi, poydevori bu – maktab..."[1] .

Fan va texnikaning tezkor rivojlanishi natijasida yuqori malakali mutaxassis, muhandis-konstruktorlar tayyorlashga bo'lgan ehtiyoj kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday mutaxassislarni tayyorlashda, albatta uzlusizta'lim tizimining har bir bo'g'inini o'z funksional vazifalari bor. Umumiy o'rta ta'limda jamiyatimiz uchun har tomonlama etuk, komil insonlarni tarbiyalashning muhim sharti-fan asoslaridan fundamental bilimlarni egalashga qaratilgan. Demak, mutaxassis larning dastlabki shakllanish davri umumiy o'rta ta'lim bosqichida boshlanadi hamda kasb-hunar kollejlari va oliy ta'lim tizimida rivojlantiriladi.

"Davlat ta'lismuassasasi — davlat hokimiyyati va boshqaruvi organlari tomonidan davlat mulki bo'lgan mol-mulk negizida tashkil etilgan, davlat ta'lim standartlariga va davlat ta'lim talablariga muvofiq ta'lim beradigan muassasa.. "[2]

Ma'lumki, fan va texnika taraqqiyotini loyiha, grafika va chizmalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. CHizmalar axborot uzatishning eng qulay, tushunarli usullaridan biri sifatida barcha sohalarda samarali qo'llanilmoqda. Ayniqsa, umumiy o'rta ta'luming CHizmachilik o'quv fanidan Davlat ta'lim standartlarida



“o‘quvchilarni murakkab bo‘lmasan texnik chizmalarini bajarishga, o‘qishga va o‘z fikrini tasvirlar vositasida ifoda etishga o‘rgatishdan iborat ekanligi, shuningdek chizmalarini o‘qish va bajarish orqali bolalarning fazoviy tasavvuri, mantiqiy tafakkurini, texnikaviy ijod, bunyodkorlik, hamda loyihalash kabi sifatlarni har tomonlama rivojlantirish va tarbiyalash”[3] chizmachilik fanining asosiy maqsad va vazifalari etib belgilangan. Bu esa maktab chizmachilik fani zimmasiga, ta’lim jarayoniga alohida mas’uliyat yuklaydi. SHuningdek, mehnat ta’limi zimmasida ham shunday vazifalar bor, ya’ni mehnat ta’limi metodikasida “...chizmani o‘qish mehnat topshirig‘ini bajarish bosqichlaridan biridir. Bundan tashqari chizmachilikka oid ayrim bilimlarsiz o‘quvchilarga konstruksiyalash va texnologiya elementlarini o‘rgatib bo‘lmaydi”[4].

Davlat ta’lim standarti mehnat ta’limi bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan minimil talablarda “...o‘quvchilar biror buyum eskizini chizishi, loyihalashi va shu eskiz asosida tayyorlanmaning shakl va o‘lchamlarini aniqlab, buyumning o‘zini yasashi, dizayn talablari asosida buyumga tashqi qiyofa hamda badiiy ishlov berishi” talab etiladi”[5].

Umumta’lim maktab fanlarining mehnat ta’limida boshqa fanlar bilan o‘zaro aloqada olib boriladi. Masalan, chizmachilikka oid ta’rif, tushuncha, belgi, terminlar borki, ularning qaysi birlari matematika, fizika, ximiya va mehnat kabi ta’lim sohalarida foydalilanildi hamda amalda qo‘llanishi bilan mustahkamlanadi. SHuningdek, mehnat ta’limi jarayonida quyidagi bilimlarga etiborni qaratish lozim:

1. Chizmachilik fani uchun zarur, ya’ni chizmachilik fanini o‘rganish jarayonida bilish bazasi sifatida xizmat qiladigan tushuncha va bilimlarga, masalan, buyum shaklini tahlil qilishda bo‘rtiq, chiqiq, paz, mustahkamlik qovurg‘asi, kesik, teshik, berk teshik, qulqo(ushka), ilmoq, taglik, asos, tana kabilarga hamda ishlov berish asboblaridan sverlo, keskich, freza, bolg‘a va boshqalarga oid ma’lumotlar to‘laroq shaklantiriladi;

2. Nuqta, to‘g‘ri chiziq, tekislik, yoyilma, birikma, eskiz, texnik rasm, komplekt, kompleks, paralel, perpendikulyar, uzun, qisqa, bo‘yi, eni, balandlik, yoy, aylana, doira, silindr, konus, parallelopiped; qirqim, kesim, sirt, shar, sfera kabilalar to‘g‘risida bilimlar shakllashtiriladi.

Ma’lumki, chizmachilik fani uchta maqsadni o‘z oldiga qo‘yadi;

- fazodagi uch o‘lchamli narsa, predmet va buyumlarning, ya’ni obekt’larning tekislikdagi ikki o‘lchamli tasvirlarini, ya’ni chizma qurish-bajarish qoidalarini o‘rgatishni;



- obekt'larning tekislikdagi ikki o'lchamli chizmalar bo'yicha ularni aslidagidek uch o'lchamda, fazoda tiklash-tasavvur qilish, ya'ni chizmani o'qish qoidalarini o'rgatishni;

- ob'ekt chizmalarida metrik va pozitsion masalalarni grafik echishga o'rgatishni, o'quvchilarga kelgusida zarur bo'lgan mantiqiy fikrlash va fazoviy tasavvur qilish qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirish kabilarni.

Ma'lumki, chizma texnikaning xalqaro tili bo'lganligi uchun chizmani tuzish va uni o'qish, fazoviy tasavvur qilish birdan yuzaga keladigan va tez amalga oshadigan jarayon emas. Buning uchun u maktabning boshlang'ich sinflaridan shakllantirilib boriladigan jarayon bo'lib, u ayniqsa, mehnat ta'limida uzlusiz ravishda shakllantirilib boriladi va rivojlantiriladi. Masalan, randa, bolta, arra, burg'i, jilvir, tiski, kronsirkul, shtangensirkul, sirkul, burchaklik, qalam, andoza, qolip, yoyilma, maket, model, bukilish chizig'i, elim, press, mixparchin, gayka, bolt, shpilka, payvand kabilarni bilishi va tasavvur qilinishi bosqichma-bosqich shakllantirilib boriladi.

Demak, o'quvchilarning grafik bilim, va ko'nikmalarini shakllantirish uchun V-VII sinf mehnat ta'limi ustaxonadagi amaliy mashg'ulotlar jarayonida narsa va predmetlarning-buyumlarning qismlarini taxlil qilib-o'qib, chizmalarini tuzish va ular asosida yasashga oid turli konstrukturlik masalalarini echish vositasida amalga oshiriladi hamda rivojlantiriladi. Buning uchun, mehnat ta'limi pedagog o'qituvchilari uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti mehnat ta'limi fani o'quvchilarning V-VII sinflarda egallashlari lozim bo'lgan minimal talablarida ko'rsatilgan chizmachilikka oid grafik tushuncha va bilimlar bilan tanishib, grafik tushunchalarning atamalaridan o'rinni hamda unumli foydalanishni taqazo etadi.

Mehnat ta'limi jarayonida o'quvchilarning aqliy va ahloqiy jihatdan rivojlantirib borishda ularning yosh xususiyatlarini, shaxsiy psixologik va fiziologik sifatlarini hisobga olgan holda mashg'ulotlarda zamonaviy ilg'or pedagogik texnologiyalar, yangi didaktik vositalardan keng foydalanish asosida mehnat ta'limi va tarbiyasining birligini ta'minlashga erishiladi, hamda turli echimli konstrukturlik masalalarini echish vositasida o'quvchilarning grafik bilim va ko'nikmalari shakllantiriladi va rivojlantiriladi.

Ustaxona amaliy mashg'ulotlarida buyum yoki detallarni yasash, ularni maqsadli loyihalash jarayonida boshlang'ich grafik bilim va ko'nikmalarini shakllantirish natijasida, V-VII sinf o'quvchilarning fazoviy tasavvuri, mantiqiy fikrlash qobiliyatları rivojlanadi hamda o'zlashtirish samaradorligi oshadi.



**Adabiyotlar:**

1. *Sh. Mirziyoev “Ta’lim-tarbiya tizimi: taraqqiyotning yangi bosqichi”.*- T (nutqi).: 2020
2. “*O’zbekiston Respublikasining ta’lim to‘g‘risida*” Qonuni 3- modda
3. *A.Umronxo’jaev, P. Odilov, N.Xurboev. “Umumiy o‘rta ta’limning Davlat ta’lim standartlari”.*- T.: 2017.
4. *A.Umronxo’jaev. “Maktabda chizmachilik o‘qitish”.*- T.: “O‘qituvchi” 1991.
5. *U.Nishonaliev, K.Davlytov, U.K.Tolipov, S.A.Usmonov, N.A.Muslimov, A.J.Aliqulov, D.Razzoqov, Q.Bobojonova. “Umumiy o‘rta ta’limning Davlat ta’lim standartlari”.* T., 2017.